
Халқ депутатлари туман Кенгашининг 2021-йил 30-декабрдаги
VI-40-73-11-164-К/21-сонли қарорига ўзгартириш киритиш ҳақида



XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 4 - fevral

VI-44-20-11-164-K/22

Furqat tuman hokimligi

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-40-73-11-164-K/21-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 24-yanvardagi 06/04-02-02-32/203(XDFU)-sonli xatiga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-40-73-11-164-K/21-sonli qarorining 5 va 6-ilovalari mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin, qaror va boshqa ilovalar o'zgarishsiz qoldirilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinosari (M.Oripov) tumandagi tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda mazkur qaror bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsientlarni qo'llab borilishi yuzasidan o'rnatilgan tartibda monitoringlar o'tkazib borsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonuniga asosan mazkur qaror bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsientlarni qo'llab borilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatsin.

4. Ushbu qaror Navbahor gazetasida navbatdagi sonida rasman e'lon qilinsin hamda tuman hokimligi axborot xizmati (U.Bozorov) hokimlikning rasmiy veb-saytiga 3 kunlik muddatda joylashtirilishini ta'minlasin.

2022-03-18 14:02:42